

---

## Farg'ona shahar hokimligining bayonoti

“Ozodlik” radiosining @SizdanTelegram va boshqa ijtimoiy tarmoqlarda Farg'ona shahar, A.Yassaviy ko'chasida yashovchi fuqaro, 1-guruh nogironi Baxtiyor Abduraimovning videomurojaati e'lon qilindi.

Ushbu holat haqida quyidagilarni ma'lum qilamiz:

Prezidentimizning nogironlarni qo'llab-quvvatlash borasidagi olib borayotgan siyosatlari natijasida 2017 yilda B.Abduraimovga Farg'ona shahar, A.Yassaviy ko'chasi 14a-uydan o'zining roziligi bilan xonadon ajratib berilgan. Arizasiga binoan ushbu xonadonga doimiy ro'yxatga qo'yilgan.

Ajratilgan xonadonning 3-qavatda joylashgani, fuqaro o'z uyiga qiyinchiliklar bilan chiqib-tushganidan shahar hokimligi xabardor bo'lgan va unga qulay uylardan xonadon ajratish masalalarini ko'rib chiqish kun tartibidagi masalalardan biri edi.

Farg'ona shahar hokimining o'rinbosari F.Abdillazov fuqaro B.Abduraimov bilan uchrashib, holat bo'yicha unga yordam berish ko'rib chiqilayotganini tushuntirgan.

Fuqaro B.Abduraimovning turli ijtimoiy tarmoqlardagi murojaati bu masalaga yechim topib berolmaydi. Shuni ma'lum qilamizki, shahar hokimligi o'z hududida istiqomat qilayotgan aholining barcha qatlam vakillarini farovon va qiyinchiliksiz yashashi uchun barcha choralarni ko'radi.

2019-12-19 11:30:06